

ZAR BILAN BITILGAN TARIX VA ZAMONAVIYLIK

Norova Dildora Radjabovna (O'zbekiston)

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti
mustaqil tadqiqotchisi(PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro zardo'zlik san'atining tarixiy taraqqiyoti va bugungi kundagi transformatsion jarayonlari ilmiy tadqiq etilgan. Zardo'zlikning amirlik davridagi «saroy san'ati» maqomidan hozirgi zamon sanoat va tadbirkorlik darajasigacha bo'lgan bosqichlari tahlil qilingan. Maqolada sohaning ijtimoiy o'zgarishlari, xususan, ilgari faqat erkaklarga xos bo'lgan bu hunarning sovet davridan boshlab ayollar tomonidan o'zlashtirilishi va bugungi kunda xotin-qizlarning yetakchi o'rni yoritilgan. Tadqiqotning markaziy qismini an'anaviy qo'l mehnati va zamonaviy kompyuterlashtirilgan dastgohlar o'rtasidagi bog'liqlik tashkil etadi. Dala kuzatuvlariga tayanib, Galaosiyo va G'ijduvon kabi hududlardagi hunarmandlar faoliyati, zamonaviy texnologiyalarning ish unumdorligiga ta'siri hamda xalqaro buyurtmalar xususida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro zardo'zligi, transformatsiya, saroy san'ati, korcho'b (yog'och dastgoh), gulbur (gul qirquvchi), kompyuterlashtirilgan dastgoh.

ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ ВЫШИТЫЕ ЗОЛОТОМ

Аннотация: В данной статье научно исследуются историческое развитие и современные трансформационные процессы Бухарского золотошвейного искусства. Анализируются этапы становления золотошвейного дела — от статуса «дворцового искусства» в период эмирата до современного уровня промышленности и предпринимательства. В статье освещаются социальные изменения в отрасли, в частности, освоение женщинами этого ремесла, которое ранее считалось исключительно мужским, начиная с советского периода, и ведущая роль женщин в этой сфере сегодня.

Центральную часть исследования занимает взаимосвязь между традиционным ручным трудом и современными компьютеризированными станками. На основе полевых наблюдений рассматривается деятельность ремесленников в таких регионах, как Галаасия и Гиждуван, влияние современных технологий на производительность труда, а также особенности международных заказов.

Ключевые слова: Бухарское золотошвейное искусство, трансформация, дворцовое искусство, корчуб (деревянный инструмент), гульбур (резчикузоров), компьютеризированный станок.

HISTORY AND MODERNITY REFLECTED IN GOLD EMBROIDERY

Abstract: This article provides a scientific study of the historical development and modern transformational processes of Bukhara's gold embroidery art. It analyzes the stages of gold embroidery from its status as «palace art» during the Emirate period to its current level of industrial and entrepreneurial development. The article highlights the social shifts within the field, specifically the transition of this craft—formerly exclusive to men—to being mastered by women starting from the Soviet era, and the leading role of women in the craft today. The core of the research focuses on the connection between traditional manual labor and modern computerized machinery. Based on field observations, the study discusses the activities of artisans in regions

such as Galaosiyo and Gijduvan, the impact of modern technologies on labor productivity, and international orders.

Keywords: Bukhara gold embroidery, transformation, palace art, korchub (wooden frame), gulbur (pattern cutter), computerized embroidery machine.

Buxoro qadimdan zardo'zlik san'atining yirik markazlaridan biri sifatida dunyoga tanilgan. Tilla kashtachilik butun dunyoda asrlar davomida Buxoro shon-shuhratini ulug'lab kelgan. Shahar o'z hunarmandlari va ularning ijodi bilan haqli ravishda faxrlanadi, ularning ba'zilar turli mamlakatlardagi muzeylar va ko'rgazma zallarida saqlanadi. Bugungi kunda ushbu san'at an'anaviy va zamonaviy usullar uyg'unligida rivojlanmoqda.

O'rta asrlarda Samarqand va Hirotda zardo'zlik markazlari mavjud bo'lib, faqatgina Buxoroda hunarmandchilik saroy san'ati darajasiga ko'tarilgan. Poytaxt Buxoroda XVI asrdan boshlab zardo'zlik buyuk hukmdorlar homiyligida bo'lgan. Zardo'zlik hunari asrlar davomida Buxoro vohasida rivojlangan va o'ziga xos maktabga ega bo'lgan. Shohona zardo'zlik mahsulotlarini tikish va uni kiyish Buxoroga xos xususiyat bo'lgani boiz eng katta amirlik zardo'zlik kolleksiyasi vujudga kelgan[4, b.136].

Saroy zardo'zlik ustaxonalari Buxoro arkida, poshsholik binolarida oliy davlat amaldorlarining hovlilarida joylashgan bo'lib, ular amir xazinasi tomonidan ta'minlab turilgan[1, b.12.]. Zardo'zlarning katta saroy ustaxonasining tashkil etilishi amir Muzaffarxon (1860–1885) nomi bilan bog'liq. Uning vorisi Ahadxon davrida (1885–1910) bu kabi yarim manufaktura tipidagi ustaxonalarning uchtasi, Arkda, qushbegining uyida va qozikalonning huzurida faoliyat ko'rsatgan[2, c.245.].

Buxoro shahrining o'ndan ortiq guzarida zardo'zlar istiqomat qilishgan. Xususan, shaharning janubiy-g'arbida joylashgan Mirdo'stim guzari "Guzari Zardo'zon" deb ham yuritilgan[3, c.285.].

Zardo'zlik san'ati bilan faqat erkaklar shug'ullangan. Ayollarga bu ish bilan shug'ullanish ta'qiqlangan. Ba'zi rivoyatlarda buxorolik ayollarning go'zalligini ko'rganda tilla iplar xiralashib, hashamatini, jilosini yo'qotganligi aytiladi. Amir ustaxonasida nega faqat erkaklarga tilla tikishga ruxsat berilgan? Ehtimol, bu ish nozik ayollar uchun og'ir ish bo'lgandir.

Tilla kashtachilikning bezaklari boy bo'lib, o'simlik va hayvonot dunyosi naqshlari, geometrik naqshlar, murakkab kompozitsiyalar va boshqa naqshlarni o'z ichiga olib, usta hunarmand gulbur gulqaychi yordamida dastlab teridan keyinchalik karton qog'ozlardan mahorat bilan gullarni qirg'gach, ustidan zar iplar bilan tikkan.

Sovet davrida zardo'zlik ustalari artellarga birlashgach, ayollarga ushbu hunar bilan shug'ullanish imkonini bergan. Bugungi kunda ayollar zardo'zlik sohasida yetakchi bo'lib, sanoqli erkak hunarmandlarga shug'ullanib kelmoqda. Hozirda Buxoro zardo'zlari o'z hunarmandchilik maktablariga ega bo'lib, ustoz-shogird an'analarga muvofiq shogirdlariga hunar sirlarini o'rgatish barobarida, zamonaviy bezaklar yaratib kelmoqda.

Qo'l mehnatiga asoslangan bitta asarni yaratish uchun bir necha oy vaqt talab etgan. Mashaqqatli jarayon uzoq davom etishi sabab buyurtmalar bir necha oy yoki 1 yil oldin qabul qilingan. Masalan bo'yi yetgan qizga onasi kelinlik sepiga kiyadigan zardo'zi liboslar, bosh kiyimini 1-2 yil oldin buyurtma qilgan. Shunda zardo'z ustalar kerakli xom ashyolarni tayyorlab, shoshmay tikishgan. Muchal yoshidagi o'smirlar uchun oldinroq do'ppi, chopon (to'n), lozim, oyoq kiyimi uchun buyurtma berilgan.

Bugun to'ylarda zardo'zi mahsulotlarga talab juda katta. Vohada asosan nikoh to'ylar uchun zardo'zi chimildiq, kuyov uchun maxsus zardo'zi to'n, zardo'zi salla, zardo'zi belbog', kelin uchun zardo'zi kamzul, zardo'zi do'ppi (kalapo'sh), joypo'sh (sandiqli usti yopinchi), zardo'zi ko'rpacha (taki chimildig'i), zardo'zi joynamoz, zardo'zi yostiq va lo'lalar, maxsus sallabandon

marosimi uchun peshonaband, kultapo'shak, zardo'zi pesh kurtalar, sunnat to'ylari uchun o'g'il bolalar zardo'zi to'ni (1 yoshdan 7 yoshgacha), zardo'zi shohona sallalar tayyorlanmoqda. Usta hunarmand tadbirkorlar zardo'zlik mahsulotlarini ijaraga berish bilan ham shug'ullanishadi. Buyurtma asosida qo'l mehnatida zardo'zi mahsulotlarini tikish ancha vaqtni talab qiladi va narxi juda baland baholanadi. Shu sababdan mijozni mamnun qilish va hamyonbop mahsulotni taqdim qilish maqsadida hozirgi kunda usta hunarmand zardo'zlar zar tikadigan dastgohlardan foydalanishadi. Dastgohlarning afzallik tomonlari bir necha oylik qo'l ishini 2-3 kunda bajara oladi. Motori sovitib turilsa kun davomida tinmay ishlashi mumkin. Muhimi, kompyuterlashtirilgan, yuklangan dastur bo'yicha zar iplarni o'zi guliga, rangiga qarab almashtira oladi.

Bugungi kunda vohada zardo'zlik hunarmanchiligida zamonaviy dastgohlarni ishlatish yo'lga qo'yilgan. Dala kuzatuvlari davomida ko'pgina tumanlarida undan unumli foydalanilayotganini guvohi bo'ldik.

Buxoro tumani Galaosiy o'sha shaharchasidagi zardo'zlardan biri 6 yoshidan zar tikkan, onasining ishlariga havas bilan korcho'b (forscha, kor-ish, cho'b-yog'och) boshiga o'tirib zar tikishni boshlagan. Hozirda faqat kompyuter dastgohida tayyorlanadigan buyurtmalar ustida ishlaydi. Samarqand va Toshkent shaharlariga ko'proq buyurtma asosida tikadi. Zardo'zlikning gullarini dizayner sifatida o'zi chizadi. Dizaynerlar o'rtasidagi raqobat zardo'z hunarmandlarni takrorlanmaydigan gullarni yaratishga undamoqda[5].

Ma'lumki, O'zbekistonda hurmatga sazovor mehmonlarga, davlat rahbarlariga zar chopon, podshohlar kiygan zardo'zi chopon sovg'a qilinadi. Xitoylik tadbirkorlardan biri Jeki Chan tug'ilgan kuni uchun zardo'zi chopon (to'n)ni O'zbekistonga maxsus buyurtma beradi. Galaosiyolik hunarmand buyurtmani kompyuter dastgohda 3 kunda tikib yetkazgan. Hunarmand mashhur futbolchi Karim Benzema uchun ham buyurtma asosida tez fursatda zar chopon tikkan. Choponning orqa qismida zar iplar bilan Karim Benzema degan yozuv ham tushirilgan.

G'ijduvon tumanida yashovchi zardo'z usta ham uyida zardo'zlik sexi ochgan. Kompyuter dastgohi Xitoydan keltirilgan. Dizayner tomonidan, rassomdan gullarni fleshkada olib kompyuterga qo'yiladi va barcha ishlarni kompyuterni o'zi bajaradi. Iplar uzilib qolmasligi uchun nazorat qilinadi. Hozirgi kunda zardo'zlik uchun zarlar asosan Dubay, Xitoy va Yaponiyadan keltiriladi. Xitoydan keltiriladigan zarlar arzon, Yaponiyadan keladigan zarlar qimmat va sifatlidir.

Oilaviy sevlarda doimo ustoz-shogird an'analariga rioya qilgan holda, yosh avlodga hunar sirlari o'rgatilibgina qolmayrag'batlantirib turish, moddiy ta'minot va maosh ham to'lab boriladi.

2023-yilda Xalqaro zargarlik va zardo'zlik festivali uchun Buxoro tumani Mohitobon qishlog'ida yashovchi usta zardo'z hunarmand tomonidan 2x3 metr hajmda qo'lda tikilgan zardo'zi gilam juda yuqori baholangan. Qo'lda juda nafis, nozik tikilgani uchun ushbu hunarmandning mahsulotlariga talab juda katta. Qo'shni davlatlarga (Tojikiston, Qozog'iston) ham qo'lda tikilgan zardo'zlik mahsulotlarini yetkazib berilmoqda.

Vohaning O'zbekiston qishlog'ida gulbur (o'zb.gul kesuvchi) ustalar saqlanib qolgan. Gulburlar qo'lda gulqaychi yordamida gul qirqib, qadimiy an'anani saqlab qolganligi bilan boshqa gulburlardan farq qiladi. Hozirda kompyuterda lazer yordamida gullar qirqiladi. Maxsus gul qaychi yordamida gul kesish jarayon murakkab hisoblanadi. Avval yupqa karton qog'ozga oq surf (yupqa paxta mato) yelimlanib, mato bilan karton qog'oz birikib qurigach, so'ngra ustidan gul chizilib gulqaychi yordamida qirqiladi. Gul qirqish mas'uliyatli, mashaqqatli jarayon, xatoga yo'l qo'yilsa gul buziladi. Hunarmandning qo'llari temir qaychidan qavarib ketadi. Qaychi katta va og'ir bo'lishiga qaramasdan ushbu hunar bilan xotin-qizlar ham shug'ullanib kelmoqda[6].

An'anaviy zardo'zlik hunarida zamoniy texnologiyalarning kirib kelishi va faol qo'llanilishi transformatsion jarayonlarni boshlab berdi. Texnologiya dastgohlari sifatli tikishi, berilgan

buyruqni to'g'ri bajarishi mumkin, ammo tabiiy idrok singari tasavvur qilish, kreatib ijodiy yondashuv, yangi g'oyalar ustida ishlaymay oldi. Mazkur jihatdan hunamrandlarning qadri va mahsulotining qiymati doimo yuqori turadi.

Zamonaviy zardo'zlik mashinalarining asosiy funksiyalarini avtomatik ip kesish, rang almashtirish, naqsh xotirasi, sensor ekran, USB orqali dizayn yuklash, metal ip(zar) bilan ishlash imkoniyatlaridan iborat. Zardo'zlik mashinalarining afzalliklari juda tez ishlashi, bir xil sifat, katta hajmda ishlab chiqarish, murakkab naqshlarni tikishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga kamchiliklari ham bo'lib, bunda dastgohning tez buzilishi, servis (ta'mir) muammosi, original brendlarga qaraganda sifati pastroq bo'lishi mumkin.

Zardo'zlik mashinalarining eng qulay va xaridorgiri Dahao A15 brendi ostida stanok hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, 1920-yillarning o'rtalarida sobiq saroy ustalari boshini qovushtirgan ilk artellar tuzila boshlandi. 1930-yilda Buxoroda bir nechta kichik guruhlar birlashib, "Zardo'z" artelini tashkil qildi. Bu zardo'zlikni uy mehnatidan jamoaviy ishlab chiqarishga o'tishining ilk qadami edi. 1938 yilda Buxoro zardo'zlik fabrikasiga asos solinadi. 1960 yilda artel negizida Buxoro zardo'zlik fabrikasi rasman tashkil etildi. Bu davrda san'atda muhim o'zgarishlar yuz berdi. Hunar ayollar tomonidan keng o'zlashtirila boshlandi. Mahsulotlar turi ko'paydi: nafaqat kiyimlar, balki devoriy pannolar, teatr pardalari va bayroqlar tikish yo'lga qo'yildi. Fabrika mahsulotlari xalqaro ko'rgazmalarda (Monreal, Osaka, Leypsig) oltin medallarni qo'lga kiritdi. Mustaqillikdan so'ng fabrika xususiylashtirildi va "ZARKON" aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi. Fabrikada qadimiy "gulduzi" va "zaminduzi" uslublari qayta tiklandi. Ana shu boy an'analarni davom ettirayotgan korxonalaridan biri ZARKON hisoblanadi. Korxonada Buxoro shahrida faoliyat yuritib, milliy zardo'zlik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qadimiy hunarmandchilik an'analarni saqlash va rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

Zardo'zlik san'ati Buxoroda asrlar davomida shakllanib, ayniqsa XIX asrda o'zining yuksak taraqqiyot bosqichiga erishgan. Zardo'zlik mahsulotlari oltin va kumush iplar yordamida baxmal, shoyi va boshqa qimmatbaho matolarga naqsh tushirish orqali yaratiladi. Buxoro zardo'zlik maktabi o'zining nafisligi, murakkab bezaklari va yuksak badiiy saviyasi bilan ajralib turadi.

"ZARKON" fabrikasida milliy to'nlari, do'ppilar, ayollar liboslari, sumkalar, sovg'abop buyumlar, dekorativ pannolar, pardalar va boshqa zardo'zi mahsulotlar faqat qo'lda tayyorlanadi. Mahsulotlarda an'anaviy Buxoro naqshlari bilan bir qatorda zamonaviy dizayn elementlaridan ham foydalaniladi. Korxonaning asosiy vazifalaridan biri milliy madaniy merosni asrab-avaylash va yosh avlodga hunar sirlarini o'rgatishdir. Fabrikada tajribali ustalar faoliyat yuritib, zardo'zlikning qadimiy usullarini saqlab qolish va ularni kelajak avlodlarga yetkazishga katta e'tibor qaratadilar.

Bugungi kunda "ZARKON" fabrikasi nafaqat ishlab chiqarish korxonasi, balki Buxoroning madaniy va turistik salohiyatini namoyon etuvchi maskanlardan biri hisoblanadi. Uning mahsulotlari milliy hunarmandchilik an'analarni aks ettiruvchi noyob san'at asarlari sifatida qadrlanadi hamda O'zbekistonning boy madaniy merosini targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Zardo'zlik fabrikasida chet ellik sayyohlarga mahorat darslari ham tashkil etiladi. Sayyohlik tashkilotlarining mas'ul Gid xodimlari kuzatuvida chet ellik mehmonlar zardo'zlik san'ati bilan yaqindan tanishish, tikish jarayonlarini o'z ko'zlari bilan ko'rib, go'zallik yaralishining guvohi bo'lishadi. Shuningdek, ular uchun maxsus tayyorlangan korcho'blarda zardo'zi tikishlariga ham ruxsat beriladi.

Hozirgi kunda Buxoro zardo'zlik hunari barhayotligini ta'minlayotgan, qadimiy hunarni davom ettirayotgan zamonaviy korxonalaridan biri "Malika Sulton Zardo'z" oilaviy korxonasidir. Korxonada milliy hunarmandchilik an'analarni saqlash, rivojlantirish va zardo'zlik mahsulotlarini

ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Korxonada faoliyatining asosiy yo'nalishi milliy zardo'zi buyumlar, to'nalar, do'ppilar, ayollar liboslari, bezak buyumlari hamda suvenir mahsulotlarini tayyorlashdan iborat. Mahsulotlarni yaratishda an'anaviy Buxoro zardo'zlik maktabining usullari va naqshlaridan keng foydalaniladi.

"Malika Sulton" oilaviy korxonasi tajribali ustalar faoliyat yuritib, zardo'zlik san'atining avloddan-avlodga o'tib kelayotgan sir-asrorlarini yosh hunarmandlarga o'rgatib kelmoqda. Bu esa milliy madaniy merosni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonada tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nafaqat mahalliy bozorda, balki sayyohlar orasida ham katta qiziqish uyg'otadi. Zardo'zi buyumlar Buxoroning boy madaniy merosini aks ettiruvchi san'at namunasi sifatida qadrlanadi.

Bugungi kunda "Malika Sulton" oilaviy korxonasi milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda Buxoro zardo'zlik maktabining nufuzini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Korxonada faoliyati xalq amaliy san'ati an'alarini zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Korxonada nafaqat ishlab chiqarish, balki o'quv va madaniy muassasa hisoblanadi. Markazda ustoz-shogird an'anasi asosida faoliyat yuritiladi. Markazda taxminan 100 nafarga yaqin usta va shogird faoliyat yuritadi. Ularning bir qismi tajribali zardo'z ustalar bo'lsa, qolganlari hunarni o'rganayotgan yosh shogirdlardir.

Korxonada mahsulotlar asosan qo'l mehnati asosida tayyorlanadi. Shu bilan birga zamonaviy tikuv va kashta mashinalari stanokdan ham foydalaniladi. Mahsulotlar qatoriga milliy liboslar, to'y kiyimlari va suvenir buyumlar kiradi. Markazda katta sanoat dastgohlari emas, balki kichik va o'rta hajmdagi kashta mashinalari ishlatiladi. Asosiy e'tibor qo'l zardo'zligiga qaratilgan bo'lib, mashinalar yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi. Markaz mahsulotlari nafaqat ichki bozorda, balki xorijiy davlatlarga ham eksport qilinadi. Ushbu markaz milliy hunarmandchilikni saqlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, yoshlarni kasbga o'rgatish orqali bandlikni ta'minlaydi.

"Malika Sulton" oilaviy zardo'zlik korxonasi Buxoro zardo'zlik san'atining bugungi kundagi davomchilaridan biri bo'lib, milliy qadriyatlar va hunarmandchilik an'alarini saqlash hamda targ'ib etishda muhim o'rin tutadi.

2026 yil 15-17 may kumlarida bo'lib o'tgan "III Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivali" doirasida mahalliy va xorijiy hunarmandlar ishtirokida 12 ta nominatsiya bo'yicha ko'rik-tanlov tashkil etilgan bo'lib, tanlov ishtirokchilarining ijodiy ishlari xalqaro hay'at tomonidan yuqori baholannib, ko'rik tanlov doirasida "Eng yaxshi zardo'zlik tashkiloti" nominatsiyasida 1-o'rinni "Malika Sulton" korxonasi egalladi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi texnika taraqqiyoti zamonida qo'l mehnatining dastgohlar, robotlar yordamida bajarilishi XXI asr yutug'i, lekin shu bilan bir qatorda shunday sohalar borki uni faqat inson qo'ligina mukammallikka yetkaza oladi. O'zining betakrorligi, eksklyuziv ko'rinishi bilan ko'zni quvontiradi. Zardo'zlik hunari ham shunday betakror, go'zal hunar turiki, unda har bir usta zardo'zning o'z muhri, dastxati mujassamdir. Zar iplar bilan bezaklarni san'at darajasiga mukammal yetkazishga hech bir dastgohning qurbi yetmaydi. Avvalambor bunday san'at asarlarini yaratishda har bir hunarmand qalbida bajarayotgan ishiga nisbatan katta muhabbat, jasorat, sabr-toqat, go'zal ilhom, keng dunyoqarash, xotirjamlik va mas'uliyat bo'lishi kerak, shundagina ishida fayz va baraka bo'ladi. Asrlar o'tsada, texnika taraqqiyoti jadallik bilan rivojlansada zardo'z usta hunarmandlarning qo'l ishi hechqachon o'lmaydi, unutilmaydi, balkim ularning qo'l hunarmandchiligiga bo'lgan talabning oshishi va buning orqasidan katta daromad olib baraka toppish kelajakda yosh avlodni ushbu hunarni o'rganishga undaydi va Buxoro o'z

zardoʻzlik mahsulotlari brendini yaratib dunyoga taniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻuxati:

1. Гончарова П.А. Бухоро зардўзлик санъати. – Тошкент: Гафур Гулом, 1986. – Б.12.
2. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. Бухарские записи. – Ташкент: Гафур Гулям, 1982. – С.245.
3. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодалного города Бухары «в связи историей кварталов».– Москва: Наука, 1976. – С.285.
4. Курбонова М.Б. Бухоро зарбоф кийим-кечаклари коллекцияси // Музейшунослик XXI асрда: тадқиқотлар, анъаналар ва инновациялар. Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. 2-китоб. – Тошкент, 2022. – Б.136.
5. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati, Buxoro tumani, Galaosiyo shaharchasi. 2025 yil mart.
6. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati, Buxoro tumani, Oʻzbekon qishlogʻi. 2025 yil mart.
7. Dala yozuvlari. Buxoro shahar I.Moʻminov koʻchasi 14-uy, Gold embroidery factory OOO ZARKON, tarixiy jihatdan Buxoro zardoʻz aksiyadorlik jamiyati (1991 yil). 2025 yil iyun.
8. Dala yozuvlari. Buxoro shahar Bahouddin Naqshband koʻchasi 10/1-uy."Malika Sulton zardoʻz" MCHJ, oilaviy korxonasi. 2025 yil yanvar